

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDAGI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY HOLATI

Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li

Alfraganus University dotsenti, PhD

Ollayorov Behruzбек Sardor o‘g‘li

Alfraganus University Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining faoliyati samaradorligi asosan ularning faoliyat yuritish mexanizmiga bog‘liq, bunda uning tarkibiy qismlari sifatida taklif etiladigan tovarlar sifati-korxonalar xizmatlari; xizmatlarga bo‘lgan bozor narxlari; xizmatlarni ko‘rsatish samaradorligi; foydalanilayotgan texnologiyalar; biznes foydaliligi va shu kabilarni ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ishlab chiqarish, qurilish materiallari, hudud iqtisodiyoti, zamonaviy texnologiyalar, boshqaruv usullari, boshqaruv mexanizmi, boshqaruv muammolari, boshqaruv turlari, innovatsion boshqaruv, umumiy sifat boshqaruvi, boshqaruv jarayonlari.

Аннотация

Эффективность деятельности предприятий по производству строительных материалов, функционирующих в Республике Каракалпакстан, в основном зависит от механизма их функционирования. В данном контексте рассматриваются такие составные элементы, как качество предлагаемых товаров и услуг, рыночные цены на услуги, эффективность предоставляемых услуг, используемые технологии, деловая эффективность и другие аналогичные факторы.

Ключевые слова: производство, строительные материалы, региональная экономика, современные технологии, методы управления, механизм управления, проблемы управления, виды управления, инновационное управление, всеобщее управление качеством, управленческие процессы.

Abstract

The efficiency of construction material manufacturing enterprises operating in the Republic of Karakalpakstan largely depends on their operational mechanisms. This includes components such as the quality of offered goods and services, market prices for services, efficiency of service delivery, applied technologies, business profitability, and other similar factors.

Keywords: production, construction materials, regional economy, modern technologies, management methods, management mechanism, management problems, types of management, innovation management, total quality management, management processes.

KIRISH

Qoraqalpog‘iston Respublikasi mamlakatimizning tabiiy resurslarga boy mintaqalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Mintaqadagi tabiiy xomashyo resurslarining zahiralari mintaqa investitsion jozibadorligining muhim omillaridan biridir. Hozirgi kunlarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida foydali qazilmalarning ko‘plab konlari ishga tushirilgan va ulardan sanoat mahsulotlarini, jumladan, qurilish materiallarini ishlab chiqarish jarayonlarida samarali foydalanilib kelinmoqda. Xo‘jalik maqsadlarida foydalanilishi bo‘yicha bu xomashyo resurslari kimyo, yoqilg‘i, energetika, metallurgiya, qurilish materiallari va shu kabi xomashyo zahiralarga ajratiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi ayniqsa, qurilish materiallari (qum, shag‘al, gips va h.k.) ishlab chiqarish uchun keng zahiralarga egadir. Mintaqa qurilish materiallari tarmog‘ining asosiy o‘ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi: mintaqaning qurilish materiallariga bo‘lgan ehtiyojlarining mahalliy xomashyo zahiralari hisobiga qoplanishining yuqori darajasi; mintaqada joylashgan deyarli barcha qurilish materiallari bozorlarida ishlab chiqarishning yetarlicha darajada konsentratsiyalashuvi; mintaqada qurilish bozorida o‘z ichiga qurilish korxonalaridan tashqari qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarni ham oladigan vertikal integratsiyalashgan tuzilmalarning mavjudligi; mintaqada ishchi kuchi zahiralarning yetarliligi va uning malakasini oshirish uchun shart-sharoitlar mavjudligi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunlarda ko‘plab transformatsiyalangan strategiyalar turlari mavjud bo‘lib, ular garchi turli xil kompaniyalar va korxonalar tomonidan qo‘llanilsada, lekin ularning ko‘pchiligi asos bo‘ladigan va eng muhim strategiyalarga tayanadi – bunda ularning har biri korxonada atrofidagi ichki va tashqi muhitlardagi o‘ziga xos sharoitlarga qarab modifikatsiyalanishi hamda moslashtirilishi mumkindir.[1] Kompaniyalarning modifikatsiyalangan strategiyalari asoslarini belgilash uchun mutaxassislar ko‘p hollarda tarmoqning asosiy o‘ziga xosliklaridan foydalanadilar.[2]

Milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda iqtisodiyotning turli sohalariga doir XX asr oxirlaridan boshlab to hozirgi kunlarga ishlab chiqilgan strategik boshqaruv yo‘nalishidagi tadqiqotlar, konsepsiyalar va ta’rif-tavsiflar ko‘plab uchraydi. Ular ichidan rossiyalik tadqiqotchi-olim O.S. Vixanskiyning strategik boshqaruv borasidagi ta’rifi bizning nazarimizda ancha e’tiborga loyiq deb hisoblanadi: “...Strategik boshqaruv – bu shunday boshqaruvki, u tashkilotning inson salohiyatiga tayanadi, ishlab chiqarish faoliyatini iste’molchilar talab-ehtiyojlariga qarab yo‘naltiradi, tashkilot atrofidagi muhitda yuzaga keladigan da’vatlarga javob beradigan va raqobatchilikda ustunliklarga erishish hamda uzoq muddatli istiqbollarda yashab qolish, belgilangan maqsadlarga erishish imkonini beruvchi moslashuvchan tarzda tartibga solishni va o‘z vaqtida tashkilotdagi o‘zgarishlarni amalga oshiradi”. [3]

Strategik menejmentning maxsus metodlari va usullari rahbar xodimlarga biznesning turli xil ko‘rinishlarini baholash hamda zanjirlash, ular uchun mos holdagi barcha strategiyalarni ishlab chiqish, eng muhim yo‘nalishlar va muammolarga diqqatni qaratish, yakuniy hisobda esa – uzoq muddatli davrlarda korxonaning barqaror rivojlanib borishini ta’minlashga yordam beradi. Strategik boshqaruv asosida strategik

qarorlar yotadi. O'z navbatida strategik qarorlar – bu strategik darajada qabul qilinadigan qarorlardir. Aytish kerakki, strategik qarorning oliy shakli bo'lib strategiya sanaladi.[4]

Rivojlanish strategiyasining asosiy g'oyasi korxonalar faoliyatining shunday bir tarzda rejasi ishlab chiqilishidan iborat bo'ladiki, bunda u qurilish materiallari korxonasi faoliyatining samaradorligini ta'minlashi, shu jumladan, uzoq muddatli istiqbolda xohlanayotgan foyda va natijalarga erishilishiga yordam bermog'i lozimdir.[5]

METODOLOGIYA

Qoraqalpog'iston respublikasidagi qurilish materiallari sanoati korxonalarida boshqaruvning zamonaviy holati ning o'ziga xos jihatlari qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqada faoliyat ko'rsatayotgan qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining faoliyati samaradorligi asosan ularning faoliyat yuritish mexanizmiga bog'liq bo'lib, bunda uning tarkibiy qismlari sifatida taklif etiladigan tovarlar sifati-korxonalar xizmatlari; xizmatlarga bo'lgan bozor narxlar; xizmatlarni ko'rsatish samaradorligi; foydalanilayotgan texnologiyalar; biznes foydaliligi va shu kabilarni ko'rsatib o'tish mumkindir.

Mintaqadagi qurilish materiallari bozorining rivojlanish holati va tendensiyalarini tahlil qilish natijalari bu bozor rivojlanishining ijobiy tendensiyalarini ajratib ko'rsatishga imkon berib, ular qatorida quyidagilarni ta'kidlab o'tish mumkindir:

- Mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati mintaqada eng dinamik ravishda rivojlanib borayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, 2023 yil yakunlariga ko'ra bu tarmoqning YHM (yalpi hududiy mahsulot)dagi ulushi qurilish sohasini ham qo'shib hisoblaganda 7,5 % ni tashkil etgan — bunda o'tgan yilga nisbatan 0,1 % ga o'sish ro'y bergan (1-jadval).

- Iste'molchilarning hozirgi davrdagi talab-ehtiyojini qondiradigan va ko'plab parametrlari bo'yicha jahon andozalariga mos keladigan hamda bir vaqtning o'zida mahalliy xomashyo asosidagi qurilish materiallarini ishlab chiqarish ulushining ortib bormoqda.

- Mintaqadagi qurilish materiallari bozoriga kirib kelayotgan ilg'or xorijiy firma va kompaniyalarning faoliyati mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatayapti.

- Respublikaning boshqa mintaqalari singari Qoraqalpog'iston Respublikasida ham qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan bir qator qarorlar, jumladan, soliq imtiyozlarini berish, uzoq muddatli kreditlash tizimini joriy qilish, ishlab chiqarish va investitsion faoliyatni rag'batlantirish borasidagi boshqa chora-tadbirlar ham mintaqada qurilish materiallari sanoatining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

1-jadval
Qoraqalpog‘iston Respublikasi YHM da 2021-2023 yillardagi qurilish va qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog‘ining ulushi ko‘rsatkichlari¹

Ko‘rsatkichlar	2021 yil, mlrd so‘m	Ulushi, %	2023 yil, mlrd so‘m	Ulushi, %
I. YaHM, jami	25681,8	100,0	29925,4	100,0
<i>Shu jumladan:</i>				
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	23908,5	93,09	27566,6	92,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	1773,3	0,06	2358,8	7,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	23908,5	93,09	27566,6	92,1
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	7040,8	27,4	8164,1	27,2
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	8050,7	31,3	8784,5	29,3
Sanoat	6127,0	23,8	6499,7	21,7
qurilish	1923,7	7,4	2284,8	7,5
Xizmatlar	8817,0	34,3	10618,0	35,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1210,0	4,7	1437,0	4,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1534,5	5,9	1857,1	6,2
boshqa xizmat tarmoqlari	6072,5	23,4	7323,9	24,4

Bugungi kunda mintaqa qurilish materiallari bozori rivojlanishida yuzaga kelgan salbiy tendensiyalarni ham ko‘rsatib o‘tish zarur deb hisoblaymiz:

- Qurilish materiallari sanoatiga hozirgi vaqtda investitsiya qilinayotgan mablag‘lar hajmi bu tarmoqning innovatsion, texnik va texnologik salohiyatini oshirib borish uchun kamlik qilmoqda.

- Qurilish materiallari bozorining barcha talab-ehtiyojlariga javob beradigan qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarining keng ko‘lami mavjud deb hisoblab bo‘lmaydi – zamonaviy va talab kuchli bo‘lgan qurilish materiallari assortimentini kengaytirish talab etiladi.

- Mintaqaning qurilish materiallari tarmog‘i uy-joy qurilish hajmlarining orta borishi jarayonida mahalliy qurilish bozorining ehtiyojlarini to‘la hajmlarda qoplay olmayapti – ayrim qurilish materiallari boshqa mintaqalardan yoki xorijdan olib kelinmoqda; Shu jumladan, yangi arxitekturaviy-qurilish tizimlariga, binolarning zamonaviy va energiyatejamkor tiplariga, istiqbolli qurilish texnologiyalariga o‘tish, qurilish materiallarini ishlab chiqarish va ulardan ob‘ektlarni barpo etishda foydalanish jarayonida resurs sig‘imini kamaytirish, energiya va mehnat tejamkorligi bo‘yicha ishlarni amalga oshirish sust bormoqda.

- Tarmoqda haligacha investitsion sikl davomiyligini qisqartirish bo‘yicha bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirish ehtiyoji mavjud, jumladan, ekologik toza, zamonaviy innovatsion qurilish materiallari nomenklaturasini kengaytirish borasida ishlarni amalga oshirish talab etiladi – bunda arzon, sifatli va mahalliy shart-

¹ Muallif ishlanmasi

Sharoitlarga javob beradigan qurilish materiallarini ishlab chiqarish ustuvor yoʻnalish qilib belgilanishi zarur.

- Qoraqalpogʻiston Respublikasi hududi boʻylab qurilish materiallari ishlab chiqarish quvvatlarining joylashuvi notekis ravishda shakllangan boʻlib, bu kamchilikni bartaraf etishda hududning iqlimiy, geografik va demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda chora-tadbirlar mexanizmini ishlab chiqish lozimdir.

- Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan kamchiliklarning aksariyat qismi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida qoʻllanilayotgan boshqaruv tizimining eskicha usullaridan foydalanilayotganligi, zamonaviy menejment tamoyillari asosida boshqaruv tizimini joriy etishning oqsayotganligi kabilar bilan bogʻliq.

Mintaqa qurilish materiallari bozorining amal qilish mexanizmi oʻzida mazkur bozordagi korxonalarining faoliyati xususiyatlaridan, shuningdek, qurilish materiallari narxlari, ularga boʻlgan talab va taklifning oʻzaro aloqadorliklarini namoyon qiladi. Mazkur bozor tuzilmasi qurilish materiallari korxonalarining faoliyati xususiyatlarini belgilab beradi. Bir qarashda bu korxonalar ishlab chiqargan qurilish materiallariga talab bu mahsulotlar isteʼmolchilari soni va daromadlariga bogʻliqligi koʻzga tashlanadi. Ikkinchi tomondan esa mazkur mahsulotlar narxi ham bu talabga oʻz taʼsirini oʻtkazadi.

Mintaqada bugungi kunlarga kelib shakllangan sanoatning asosiy koʻrsatkichlarini tahlil qilib chiqadigan boʻlsak, bu tahlil maʼlumotlari bizga Qoraqalpogʻiston Respublikasida sanoatning soʻnggi oʻn yildan ortiqroq davr mobaynidagi rivojlanishi haqida ancha keng axborotlarni taqdim etadi (2.2.3-jadval). Qoraqalpogʻiston Respublikasi hududida sanoat mahsulotlari hajmi 2010 yildagi 697,2 mlrd soʻmlik miqdordan 2022 yilga kelib 17 624,7 mlrd soʻmgacha yetgan – bunda bu ikkala davr orasidagi oʻsish surʼatlari deyarli 25,2 baravarni tashkil etgan boʻlsa, 2023 yilning birinchi yarim yilligida esa respublikada ishlab chiqarilgan jami sanoat mahsulotlari 7 863,9 mlrd soʻmga yetib, 2010 yilga nisbatan oʻsish 11,2 martaga koʻp boʻlganligiga guvoh boʻlamiz. Bu holat respublikada sanoatni rivojlantirishga katta eʼtibor berilgani, sanoat sohasida investitsion siyosatning samarali amalga oshirilganligi, sanoat mahsulotlari assortimenti, hajmi va sifatini oshirish mahalliy hamda markaziy davlat organlarining diqqat markazida boʻlib kelayotganligini taʼkidlaydi.

Shu jumladan, qazib oluvchi sanoat tarmogʻida ham jadal oʻsishni koʻrish mumkin boʻlib, oʻrganilayotgan yillar mobaynida qazib olish sanoatidagi eng yuqori oʻsish koʻrsatkichi koronavirus pandemiyasi tarqalishidan oldingi 2019 yilda kuzatiladi – shu yili Qoraqalpogʻiston Respublikasi boʻyicha qazib olish sanoatida 503,6 mlrd soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarilgandir. Pandemiya davrida qazib olish sanoatidagi ishlab chiqarish hajmlari 2020 yil yakunlaridan keyin asta-sekin koʻtarila boshlagan va 2023 yilning dastlabki yarim yilligida 1 10,2 mlrd soʻmlik mahsulot ishlab chiqarish hajmiga erishilgan.

Xuddi shunday yuqori oʻsish surʼatlari roʻy bergan vaziyatni respublikaning qayta ishlash sanoatida ham kuzatish mumkin – 2022 yilda 2010 yilga nisbatan 34,2 marta,

2023 yil birinchi yarim yilligida esa 15,2 marta ko‘p mahsulotlarni qayta ishlab, mahalliy va xorijiy bozorlarga qazib olish sanoati mahsulotlarini yetkazib berishga muvaffaq bo‘lingan. Mamlakatimizning barcha mintaqalaridagidek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ham sanoatning shu jumladan, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida ham investitsiyalar katta ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda va ular vositasida qurilish hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari ijobiy xususiyatga ega bo‘lmoqda (2.2.4-jadval). Jumladan, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2010 yilda 496,4 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib bunday yo‘nalishda o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 10 254,0 mlrd so‘mdan iborat bo‘ldi. Xuddi shu ko‘rsatkich bo‘yicha 2023 yilning birinchi yarmidayoq 4 703,6 mlrd. so‘mlik investitsiya mablag‘lari asosiy kapitalni kengaytirish uchun o‘zlashtirilgan. Amaliyotdan ma‘lumki, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi ko‘p jihatdan mazkur soha mahsulotlarining birinchi o‘rindagi va eng yirik iste‘molchisi – qurilish ishlari sohasining rivojlanishi tendensiyalariga, bu bozorning qanchalik katta va intensiv o‘shishiga bog‘liq bo‘ladi.

2-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari¹

Ko‘rsatkichlar	2010 yil	2015 yil	2017 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2023 yil
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so‘m	697,2	2387,6	6773,3	12736,1	13981,3	16630,4	17624,7
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati, o‘tgan yilga nisbatan % da, shu jumladan:	108,0	124	111,1	105,1	102,5	107,4	100,5
Qazib oluvchi sanoat	62,4	136,4	234,7	503,6	154,0	161,7	199,4
Qayta ishlovchi sanoat	443,0	1778,6	6040,3	11023,7	12193,6	142687,6	15187,6

Masalan, mintaqada amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 2010 yil yakunlariga ko‘ra 237,1 mlrd so‘mdan iborat bo‘lgan. O‘rganilayotgan davr mobaynida qurilish ishlarining o‘shish sur‘atlari bir maromda ortib borib, 2022 yil yakunlari hisobi bo‘yicha respublikada amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi endilikda 5 272,4 mlrd so‘mni tashkil etib, bazis yilga nisbatan 2022 yilda 22,2 marta ko‘p qurilish ishlari bajarilishiga erishilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish materiallari bozori me‘yoriy xizmat muddati uzaytirilishi va yuqori ishonchlik darajasi bilan tavsiflanadigan yuqori ekspluatatsion xususiyatlarga ega

¹ Muallif ishlanmasi

bo'lgan yangi materiallarning kirib kelishini talab qiladi. Innovatsion qurilish materiallari va vaqt davomida sinovdan o'tgan hamda sezilarli hajmlarda ishlab chiqarib kelinayotgan mavjud qurilish materiallari qurilish ishlab chiqarishining uzluksizligini ta'minlash maqsadlarida o'zaro bir-birlarini to'ldirishlari va bir-birining o'rnini bosa oladigan bo'lishi zarur – bu qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv faoliyatini olib boruvchi mutaxassislar oldida turgan eng muhim masalalardan biridir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida esa 2010 yilda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 237,1 mlrd so'mdan iborat bo'lgan. Tahlil davrining oxiri — 2023 yilda esa mintaqada amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi yil yakuni bo'yicha 5 272,4 mlrd so'mni tashkil etib, o'sish surati davr boshiga nisbatan 22,2 marta ko'p bo'ldi.

Sanoat va qurilish materiallari narxlarining keskin o'sishi (20 % va undan ham yuqoriroq) 2005-2023 yillar mobaynida faqat 2005 yilda (oldingi yilga nisbatan 128,1 %), 2006 yilda (124,0 %), 2009 yilda (129,5 %), 2017 yilda (131,1 %), 2018 yilda (139,6 %) va 2019 yilda (128,2 %) kuzatiladi. So'ngi uch yilda esa mamlakatimizda qurilish materiallari narxlarining o'sish indeksleri 29 % kam o'sish sur'atlarini namoyon qilmoqda.

Qurilish materiallari sanoatining rivojlanish tendensiyalarini tadqiq qilish, uning mintaqqa iqtisodiy rivojlanishi hamda aholi turmush darajasining ortishida tutgan o'rnini o'rganish biz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy hamda amaliy talab mavjud bo'lgan yo'nalish bo'lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Генкин, Е. В. Стратегические аспекты развития потенциала организаций инвестиционно-строительного комплекса / Вестник Университета (Государственный университет управления). – 2015. – № 9. – с. 137-14;

2. Саттарова, Р. Ф. Особенности формирования стратегии развития предприятий строительной сферы / Р. Ф. Саттарова, В. Андрийко // Менеджмент и маркетинг: вызовы XXI века Материалы III Всероссийской студенческой научно-практической конференции. – Екатеринбург, 2015. – с. 318–321.

3. Виханский, О. С. Менеджмент: учебник / О. С. Виханский, А. И. Наумов. – 5-е изд. – М.: Магистр: Инфра-М, 2014. – С. 195.

4. М.Н. Дудин. Стратегический менеджмент: учеб. пособ. / М. Н. Дудин, Н. В. Лясников. – М.: КноРус, 2016. – 254 с.

5. Цуканова, О. А. Особенности стратегического управления строительными предприятиями / О. А. Цуканова, А. С. Егорова // Научно-технический вестник Санкт-Петербургского государственного университета информационных технологий, механики и оптики. – 2011. – № 5(75). – С. 130–134.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, iyun, 6-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. ГОСТ 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**